

RESEARCH ARTICLE

# On The Uzbek Translations Of Yasushi Inoue's Works

Gulmira Sattorova

Lecturer, Samarkand State Institute of Foreign Languages Samarkand, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 153-155

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

## Abstract

This article analyzes the translation of Japanese writer Yasushi Inoue's works into Uzbek, including the challenges of the translation process, the reflection of national and cultural elements, and translation strategies. It examines the adequate rendering of historical, Buddhist, and samurai terminology used in the works. The artistic interpretation and stylistic features of the Uzbek translation are scientifically assessed.

## KEY WORDS

Translation, Japanese literature, Yasushi Inoue, national and cultural realities, adequacy.

## INTRODUCTION

Bugungi globallashuv jarayoni har bir xalqning insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlash ehtiyojini tug'dirmoqda. O'z o'tmishi va qadryatlarini bilish har bir xalqning tinchligi, farovonligi va ravnaqi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu o'rinda adabiyotni xalqning ko'p asrlar davomidagi madaniyatini o'zida aks ettiruvchi oyna, deb atash mumkin. Shu sabadan sohadagi eng muhim jihat va yo'nalish qardosh xalqlar adabiyotini o'zaro o'rganish hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib borishi barobarida Sharq va G'arb adabiyoti, san'ati, madaniyatini o'rganishga bo'lgan ishtiyoq ham tobora ortib bordi. Xususan, yurtimizda sharq adabiyotini rivojlantirish, uni o'rganish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, qisqa davr ichida talay tadqiqotlar yaratilib bir qancha jihatlari tadqiq etildi, e'tibordan chetda qolgan adabiy manbalar chuqur tahlil qilindi va qilinmoqda[11,585].

Xalqaro adabiy aloqalarning rivojlanishi jahon adabiyotining nodir namunalarini o'zbek kitobxoniga yetkazish imkonini bermoqda. Yapon nasrining yirik namoyandalaridan biri Yasushi Inouening asarlari ham tarjimashunosligimizda qimmatli o'rin egallaydi. Uning "Olov devori", "Ovchi",

"Soyadagi ayol", "Yarador qartal" "Jilvagar to'ticha" kabi hikoyalari sharq falsafasi, inson ruhiyati, samuraylik e'tiqodi va tarixiy tasavvurlarni chuqur yoritishi bilan ajralib turadi [3, 112].

Inoue asarlari psixologik tasvir, tarixiy faktlar va sharqona falsafaning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Uning qahramonlari ko'pincha ruhiy kurash, vazminlik, itoatkorlik va iroda sinovlari bilan bog'liq murakkab ichki holatlarga ega [4, 57]. Bunday mazmundor matnlarni tarjima qilishda kontekstual yondashuv muhim hisoblanadi.

Jumladan "Jilvagar to'ticha" hikoyasida yapon tilidagi qisqa, ko'pincha fe'l bilan yakunlanuvchi gaplar o'zbek tilida biroz kengaygan bo'lib, bu o'zbek sintaksisining tabiati bilan bog'liq. Tarjimon gaplarni ortiqcha bezamasdan, sodda holda qayta qurishga harakat qilgan. Xususan: yaponcha "... to'ticha jim qoldi" kabi gaplar o'zbek tilida ham tabiiy tarzda qayta tiklangan, ichki monologlar esa o'zbek tilidagi badiiy nutq talablari asosida yumshoq, psixologik ohangda berilgan.

Asarda kuzatiladigan mulohazakor ruh, mayin lirizm va sokin yo'sindagi psixologik tasvir tarjimada deyarli saqlangan. Tarjimon Inoue uslubining o'ziga xos xususiyati — ortiqcha drammatizmga berilmaslik — tamoyiliga amal qilgan.

Hikoya yapon madaniyatiga xos qarashlarga — hayvonlarga munosabat, xonadon ichki muhitining sokinligi, insoniy or-nomus va sukut qadriyatlariga tayangan holda qurilgan. Tarjimada bu unsurlar o'zbek o'quvchisiga yot bo'lib qolmasligi uchun: kontekst orqali tushuntirish, semantik yumshatish, o'zbek tilidagi ekvivalent iboralarni qo'llash kabi usullardan foydalangan.

Inoue asarlarida bir qator terminlar, jumladan: "satori", "koan", samuraylikka oid atamalar "bushido", "daimyo", tarixiy toponimlar va estetik tushunchalar "wabi-sabi" ko'p uchraydi. Ularni o'zbek tilida adekvat yetkazish uchun quyidagi strategiyalar qo'llanadi: masalan, "bushido", "satori", "koan" atamaları transliteratsiya orqali beriladi. Bu strategiya o'zbek kitobxonini uchun yangi leksik birliklarni joriy qiladi. Ba'zi atamalar sharhlanadi: "vabi-sabi — soddalik va o'tkinchilik go'zalligi haqidagi yapon estetik qarashi" [8, 24]. "Daimyo" kabi unvonlar kontekstga qarab "yer egasi", "hukmdor" tarzida berilishi mumkin, biroq bu to'liq ekvivalent emas.

Yapon adabiyotida hissiyotlar ko'pincha bevosita emas, balki bilvosita timsollar, pauzalar va sokin tasvirlar orqali ifodalanadi. O'zbek tilidagi tarjimada ham ushbu noziklikni saqlash maqsadida ortiqcha dramatik bo'yoqlardan qochilgan. Yozuvchi minimalistik tasvir, sokin ohang, ichki monolog va falsafiy pauzalar orqali matnga o'ziga xos "yaponcha sokinlik" baxsh etadi.

O'zbek tarjimalarida ritmni saqlash qiyin bo'ladi, chunki o'zbek nasri odatda emotsionalroq ifoda bilan ajralib turadi [9, 188]. Misol uchun: Yapon tilidagi minimalizm ("Kam gapir, ko'p his qil" estetikasiga asoslangan) o'zbekchada tavsifiy matnlarga kengayib ketadi. Inoue hikoyalaridagi tabiat tasvirlari, ko'pincha metaforik ma'noga ega. Bunday obrazlarni badiiy talqinda yo'qotmaslik tarjimonning tajribasiga bog'liq. Masalan: "Qor yog'ardi" iborasi aslida yapon estetik minimalizmining timsoli. O'zbek variantida esa ba'zan "Qor mayin, sokin yog'ardi" tarzida kengaytiriladi. Bunday o'zgarishlar mazmunni to'g'ri yetkazsa-da, muallif uslubidagi ixchamlikni kamaytiradi [10, 56].

Yapon tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjima jarayoni faqat lingvistik emas, balki madaniy, semantik va poetik ko'chirish masalalari bilan ham bog'liq. Inoue uslubidagi falsafiy pauzalar, minimalizm, timsollar tizimi, tarixiy kontekstning zichligi va personajlarning ichki dunyosini ifodalovchi nozik psixologizm o'zbek tarjimasida alohida yondashuvni talab qiladi [3, 82].

To'tiniki takroriy, robotdek, ammo ba'zan mehsiz emas — tarjimada bu ohang o'zbekcha talaffuz xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta tiklangan. Egasi nutqi esa hikoya davomida asta-sekin ko'proq ichki monologga aylanadi — bu jarayon tarjimada ham izchil berilgan.

O'zbek tilida hissiyotlarni ifodalovchi vositalar boy, biroq tarjimon ulardan haddan ortiq foydalanmasdan, yaponcha sokinlikni saqlashga muvaffaq bo'lgan. Leksik moslikdan ko'ra dinamik ekvivalentlik afzal ko'rilgan — ya'ni mazmun va ta'sir birinchi o'rinda bo'lgan.

Inoue tarixiy manbalarga, qadimiy yapon afsonalariga, matnlarga murojaat qiladi. Tarjimon bu intertekstual bog'lanishlarni aniqlab, matn izohlarida ko'rsatishi lozim. Aks holda kitobxon asarning falsafiy qatlamini to'liq anglamasligi mumkin. Misol: "Ryoanji bog'ining toshlari" — Zen falsafasidagi "oq bo'shliq" kontseptsiyasi bilan bog'liq. O'zbek tarjimasida izohsiz qoldirilsa, ma'no yasalishi yo'qoladi [6, 97].

Yasushi Inouening "Jilvagar to'ticha" hikoyasining o'zbek tiliga tarjimasini yapon psixologik prozasi ruhini o'zbek o'quvchisiga muvaffaqiyatli yetkazgan namunalardan biri hisoblanadi. Tarjima jarayonida: leksik va semantik moslik yaxshi ta'minlangan, uslubiy minimalizm saqlangan, ramziy qatlamlar ehtiyohtkorlik bilan ko'chirib o'tilgan, madaniy moslashtirish strategiyalari o'rinli qo'llangan.

Tarjima o'zbek adabiy tilining badiiy imkoniyatlari bilan Inoue nasrining nozik psixologik ohangini uyg'unlashtira olgan. Bu esa tarjimoni nafaqat adabiy matn sifatida, balki yapon-o'zbek madaniy aloqalarining muhim ilmiy-amaliy namunalaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

Yasushi Inoue asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni murakkab madaniy, tarixiy va stilistik qatlamlarga ega. Tarjimon yapon madaniyatining o'ziga xos unsurlarini chuqur anglab, ularni o'zbek tilida imkon qadar adekvat, badiiy va konseptual yaxlitlikni saqlagan holda yetkazishi lozim. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Inoue ijodini tarjima qilishda transliteratsiya, izohli tarjima va funksional ekvivalent kabi strategiyalarni uyg'unlashtirish, shuningdek, intertekstual unsurlarni izohlash zarur. Ushbu maqola doirasida Inoue asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda duch kelinadigan semantik, madaniy va stilistik muammolar, shuningdek, tarjima strategiyalari ilmiy asosda tahlil qilindi. O'zbek tarjimalarida stilistik minimalizmni saqlash Inoue nasrining xususiyatini yo'qotmaslikda muhim rol o'ynaydi.

**REFERENCES**

- [1] Inoue Y. Selected Stories. – Tokyo: Kodansha, 1984.
- [2] Keene D. Japanese Literature. – New York: Grove Press, 1993.
- [3] Хонда Т. История японской литературы. – Москва: Прогресс, 1989.
- [4] Nakamura S. A Guide to Japanese Fiction. –Kyoto University Press, 2001.
- [5] Мураками Х. О японской прозе. – Москва: Эксмо, 2010.
- [6] Zen Aesthetics and Culture. – Kyoto: Rinsen Books, 1997.
- [7] Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasi. – T.: Fan, 1961.
- [8] Suzuki D.T. Essays in Zen Buddhism. – London: Rider, 1973.
- [9] Karimov N. O'zbek tarjimashunosligi masalalari. – T.:Akademnashr, 2015.
- [10] Qodirov M. Sharq nasri poetikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012.
- [11] Sattorova, G. (2024). Xurshid Davronning "Samarqand xayoli" va Yasushi Inouening "Samarqand atrofiga sayohat" asarlarida antroponim xususiyatlari. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 584.